

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

KARIMOVA ZULFIZAR RUSTAMOVNA

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MATEMATIKA FAKULTETI
TALABALARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Karimova Zulfizar Rustamovna

Ingliz tilini o‘qitishda matematika fakulteti talabalarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish.....3

Каримова Зульфизар Рустамовна

Совершенствование речевой компетенции у студентов математических факультетов при обучении английскому языку.....27

Karimova Zulfizar Rustamovna

Improving the Speech Competence of Mathematical Faculties Students in Teaching English.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 58

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

KARIMOVA ZULFIZAR RUSTAMOVNA

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA MATEMATIKA FAKULTETI
TALABALARINING NUTQIY KOMPETENSIYASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.2.PHD/Ped1650 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedova Layloxon Tolibjonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jumanazarov Umid Umirzoqovich
pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Urazbayev Hikmatullo Ismatullayevich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent sh., Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent sh., Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-uy. Tel.: (71) 230-12-91; faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

I.M. Tuxtasinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi v.v.b., ped.f.d. (DSc), professor

A.B. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, ped.f.d. (DSc), dotsent

K.Sh. Muradkasimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, ped.f.d.
(DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Hozirgi globalashuv davrida jahonda bo‘lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish zaruratini hisobga olgan holda, ingliz tilida nutqiy kompetensiyalarni takomillashtirish texnologiyalari, metodlari va usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ingliz tilini o‘qitish metodikasini rivojlantirishning eng istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – o‘qituvchining talabalar bilan o‘quv muloqotini faollashtiradigan va talabalarning chet tilida mustaqil ta’lim olish imkoniyatlarini kengaytiradigan multimedia didaktik vositalarini ishlab chiqishdir. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim olayotgan kontingentlarning media va axborot savodxonligini takomillashtirishga ehtiyoj ortib bormoqda, bunga, xususan, Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu) xalqaro dasturi, shuningdek, YuNESKOning TATI raqamli pedagogika va o‘quv materiallari bo‘limi faoliyati qaratilgan. Talaba-yoshlarning media va axborot savodxonligining o‘sishi, shuningdek, jamiyat hayotining barcha sohalarini axborotlashtirish natijasida xorijiy tillarni o‘qitishda podkasting va videokasting metodidan foydalanish uchun keng ko‘lamli imkoniyatlar va istiqbollari yuzaga kelmoqda.

Xorijda matematika fakultetlari talabalarining ingliz tilini o‘qitishda og‘zaki nutq kompetensiyasini oshirish muammolari bo‘yicha Qozon federal universiteti (Rossiya Federatsiyasi, Qozon), Pyatigorsk davlat lingvistik universiteti (Rossiya Federatsiyasi, Pyatigorsk), Riversayddagi Kaliforniya Milliy universiteti (AQSh) qoshidagi IEP (Intensive English Programme) til markazida, Vinnipeg universiteti (Kanada)da tadqiqotlar olib borilmoqda. Podkasting va videokasting usuli xorijiy tillarni o‘qitishda bir qator xorijiy oliy ta’lim muassasalarida, jumladan, Sharqiy London universiteti (University of East London), Avstraliyadagi Janubiy Xoj universiteti (Southern Cross University), Malayziyadagi Putra universiteti (Putra University), G.R.Derjavin nomidagi Tambov davlat universiteti, Rostov davlat iqtisodiyot universiteti (Rossiya Federatsiyasi) kabi OTMlarda faol qo‘llanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim sohasini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda islohotlar jadal amalga oshirilmoqda. Ta’limning turli darajalarida chet tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyotiga alohida ahamiyat berilib, davlat rahbari tomonidan quyidagi talab dolzarb vazifa sifatida qo‘yilgan: “Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o‘quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart. Bu qat’iy talab har bir ta’lim muassasasi rahbari faoliyatining asosiy mezoniga aylanishi lozim”¹. Bu bilan bog‘liq ravishda O‘zbekiston OTMlarida kommunikativ va sotsiomadaniy yondashuvning intensiv joriy etilishi bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zbekistonning ko‘plab nofilologik OTMlarida maxsus maqsadlar uchun ingliz tilini (ESP) tizimli o‘qitishni rivojlantirishga katta

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xorijiy tillarni o‘rgatish bo‘yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo‘ladigan yangi tizimni yo‘lga qo‘yish vaqti-soati keldi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. // <https://president.uz/uz/lists/view/4327> (Kirish sanasi: 08.09.2024).

e'tibor qaratilmoqda. Tadqiq etilayotgan ingliz tilini o'qitishda matematika fakultetlari talabalarining nutqiy kompetensiyasini takomillashtirish muammosining mazkur umumiy tendensiya doirasiga mansubligi mavzuning dolzarbligi va zaruriyatini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son "Matematika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim natijadorligi bo'yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining: I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda chet tilini o'qitish metodikasi masalalari tahliliga L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, G.X.Bakiyeva, M.T.Irisqulov, I.M.Tuxtasinov, G.T.Maxkamova, T.K.Sattorov, F.M.Rashidova va boshqa bir qator olimlarning tadqiqotlari² bag'ishlangan.

O'zbekistonda chet tili darslarida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish muammolari F.R.Yuzlikayev, U.Sh.Begimqulov, G.N.Irmuhamedova, F.Sh.Alimov, B.G.Qulmatov, K.Sh.Muradkasimova, A.B.Raxmonov,

² Axmedova L.T. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2012. – 48 с.; Jalolov J.J., Makhlamova G.T., Sh.S.Ashurov. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Бакиева Г.Х. Ирискулов М.Т., Рашидова Ф.М. English B1. Student's book. For the 1st year students of Academic Lyceums and Vocational Colleges. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 176 с.; Ирискулов М.Т. Чет тилларни ўқитишда CEFR ўрни // Узлуксиз таълим журнали. – Тошкент, 2016. – №1. –Б.77–83; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности // Бўлажак чет тил ўқитувчисини йўналтириш технологияси: илмий-амал. конф. материал. – Тошкент, 2009. – Б. 45–150; Сатторов Т.Қ. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 192 б.; Рашидова Ф.М. CEFR асосида чет тилларни ўрганиш, ўқитиш ва баҳолашда касб маҳорати // Узлуксиз таълим журнали. – Тошкент, 2016. – № 6. –Б. 70–71.

M.A.Mamedova, G.S.Sobirova, L.Sh.Shosaidova kabi olimlar tomonidan o'rganilgan³.

Chet tilini o'qitishda nutqiy kompetensiyani takomillashtirish yo'llarini M.Sh.Ruzmetova, U.K.Nosirova, N.V.Obuxov, R.F.Gabdulxakova va bir qator boshqa olimlar⁴ tadqiq etishgan.

Chet tilini o'qitish jarayonida podkast va videokastlardan foydalanish muammolariga E.Y.Malushko, S.V.Samarskaya, A.G.Solomatina, P.V.Sisoyeva, T.L.Gerasimenko, T.V.Kolesova va boshqa olimlar⁵ning tadqiqot ishlari, shuningdek, Selli Eshton-Xey, Masudul Xassan, R.Chakrakodi, Djeremi Xarmer, R.Roberts kabi xorijiy tadqiqotchilarning ishlari bag'ishlangan.

Biroq shu paytgacha matematika fakultetlari talabalarini ingliz tilini o'qitishda podkast va videokastlardan foydalanish asosida nutq kompetensiyasini oshirish muammosi maxsus monografik tadqiq qilinmagani bois nazariy tahlil va eksperimental tadqiqotlar uchun ochiqligicha qolmoqda.

³ Юзликаев Ф.Р. Теория и практика интенсификации дидактической подготовки будущего учителя в системе высшего педагогического образования (на материале педагогических дисциплин): Дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2005. – 303 с.; Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим замонвий ахборот технологияларни жорий этишининг илмий-назарий асослари. – Тошкент: Фан, 2007. – 143 б.; Ирмухамедова Г.Н. Лингводидактические основы обучения критическому чтению аутентичных текстов: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2008. – 24 с.; Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида): Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2018. – 44 с.; Кулматов Б.Г. Инглиз тилини инновацион технологиялар ёрдамида ўқитишда CEFR мезонларидан фойдаланишнинг назарий асосларини такомиллаштириш: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Ташкент, 2018. – 45 с.; Мамедова М.А. Компьютерная технология обучения омонимам английского языка учащихся общеобразовательных школ: Автореф. дис. ... докт. филос. (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2022. – 48 с.; Сабирова Г.С. Методика обучения местоимениям английского языка учащихся общеобразовательных школ на основе информационных технологий: Автореф. дис. ... докт. филос. (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2017. – 42 с.; Шосаидова Л.Ш. Способы развития устной китайской речи (на основе игровых методов): Автореф. дис. ... доктора философии (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2020. – 54 с.; Мурадқасимова К.Ш. Особенности оценки навыков и умений студентов при обучении английскому языку: Автореф. дис. ... докт. филос. (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2019. – 45 с.; Раҳмонов А.Б. Ўқувчиларнинг коммуникатив кўникмаларини ахборот-коммуникация технологиялари воситалари ёрдамида шакллантириш (5–9 синф ўқувчилари мисолида): педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. – 42 б.

⁴ Рuzметова М.Ш. Технологии развития компетенций при обучении английскому языку учащихся 5–7 классов общего среднего образования: Автореф. дис. ... докт. филос. (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2021. – 66 с.; Насирова У.К. Развитие речевой компетенции у учащихся профессиональных колледжей при обучении английскому языку: Автореф. дис. ... докт. филос. (PhD) по педагогическим наукам. – Ташкент, 2020. – 55 с.; Обухова Н.В. Иноязычный медиатекст как средство формирования рецептивной речевой компетенции студентов-бакалавров: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2012. – 25 с.; Габдулхакова Р.Ф. Развитие коммуникативной компетенции старшеклассников общеобразовательной школы при обучении русскому языку: Автореф. дис. ... докт. филос. (PhD) по педагогическим наукам. – Наманган, 2022. – 59 с.

⁵ Малужко Е.Ю. Методика формирования иноязычной профильной аудитивной компетенции магистрантов лингвистики: на основе инфокоммуникационной технологии подкастов, английский язык: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Пятигорск, 2013. – 25 с.; Самарская С.В., Кисель И.Ф. Применение подкастинга в процессе обучения иностранному языку // Международный научно-исследовательский журнал. Вып. 7 (109). – Екатеринбург, 2021. – Ч. 4. – С. 101–104; Соломатина А.Г. Методика развития умений говорения и аудирования учащихся посредством учебных подкастов: английский язык, базовый уровень: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2011. – 24 с.; Сысоев П.В. Подкасты в обучении иностранному языку // Язык и культура. – Томск, 2014. – №2(26). – С. 189–201; Герасименко Т.Л., Гулая Т.М. Опыт использования подкастов и видеокастов при интегрированном обучении профессионально ориентированному деловому английскому языку // Открытое образование. – М., 2013. – №1(96). – С.73–76; Колесова Т.В. Формирование лексических навыков при обучении чтению и аудированию с помощью мультимедиа технологий // Вестник ЧГПУ. – Челябинск, 2011. – №3-1. – С. 71–71.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 204-4-5 "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlar" loyihasi (2021-2023) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi matematika fakulteti 1-kurs talabalariga ingliz tilini o'qitishda og'zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarning og'zaki nutqini o'rgatish masalalariga oid ilmiy-metodik adabiyotlarni ko'rib chiqish va og'zaki nutq kompetensiyasining lingvistik, psixologik va lingvodidaktik jihatlarini tavsiflash, tinglash va so'zlash malakalarini rivojlantirish hamda takomillashtirish uchun podkasting va videokasting metodidan foydalanishning pedagogik shartlari o'ziga xosligini ochib berish;

O'zbekiston oliy o'quv yurtlarining matematika fakultetlarida "Ingliz tili" fanini o'quv-uslubiy ta'minlashni rivojlantirishga mazmunan yo'naltirilgan yondashuv asoslari va mezonlarini ishlab chiqish, o'rganilayotgan mavzuga oid o'quv dasturlarini, o'quv internet manbalarini tahlil qilish, talabalarning nutqiy kompetensiyalarini oshirish bo'yicha universitet o'qituvchilarining tajribasini o'rganish va umumlashtirish;

ingliz-o'zbek va o'zbek-ingliz tillaridagi muvofiqliklarni, ularning tipik birikmalari hamda ulardan so'z yasovchi hosilalarini aniqlash hamda matematika fakultetlarining 1-kurs talabalariga ingliz tilini o'qitishda nutq kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha podkasting va videokasting metodiga asoslangan mashqlar tizimini ishlab chiqish maqsadida ingliz va o'zbek tillaridagi nisbatan faol qo'llanuvchi matematik terminlarni qiyosiy tahlil qilish;

eksperimental tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tashkil etilishini tavsiflash, uning sifat va miqdoriy natijalarini ajratib ko'rsatish, ingliz tilini o'qitishda matematika fakultetlari 1-kurs talabalarining nutq kompetensiyasini oshirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz tilini podkasting va videokasting usullaridan foydalanish asosida o'qitishda matematika fakultetlari 1-kurs talabalarida og'zaki nutq kompetensiyasini (tinglash va gapirish) takomillashtirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz tilini o'qitishda matematika fakultetlarining 1-kurs talabalarida og'zaki nutq kompetensiyasini (tinglash va gapirish) takomillashtirish texnologiyalari, yondashuvlari, metodlari, usullari va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish (suhbat, so'rovnom), pedagogik eksperiment, pedagogik monitoring, matematik va statistik tahlil, umumlashtirish metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarning og'zaki nutq kompetensiyasini oshirishga mo'ljallangan matematika fanlari bo'yicha kasbiy terminlardan foydalanish asosida faol so'z

boyligini kengaytirishga ko'maklashuvchi podkast va videokastlarning metodik korpusi yaratilgan;

talabalarining ingliz tili bo'yicha og'zaki nutq kompetensiyasi samarador audio va videomateriallar tanlovida kontentga yo'naltirilgan yondashuv asosida optimallashtirilgan podkasting va videokasting usullari orqali takomillashtirilgan;

talabalarining o'quv faolligini oshirish vositasi sifatida fasilitatsiyadan foydalanish uchun barqaror sharoitlar mavjudligi, fasilitatsiya usullarini qo'llash tajriba natijalari va talabalarining o'quv faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan;

talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatida "Mathcass" elektron veb-platformasidan foydalanish ularning kasbiy-ijodiy faolligini oshirishi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tayyorlangan va tayyorlanmagan og'zaki inglizcha nutq ko'nikmalarini rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan topshiriq va mashqlar tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, bu ingliz tilini o'qitishda matematika fakulteti talabalari o'rtasida nutq kompetensiyasini takomillashtirishga yordam berishda nazariy va amaliy manba vazifasini bajarishi asoslangan;

ingliz tilini o'qitishda matematika fakultetlari talabalarining og'zaki nutq kompetensiyasini oshirishga mo'ljallangan podkastinglar va videokastlar korpusi shakllantirilib, ushbu korpus matematika sohasidagi professional terminlar yordamida faol so'z boyligini kengaytirishga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llangan yondashuv va usullarning nazariy asoslanganligi, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, tajriba-sinov ishlari natijalarining matematik statistika usullari bilan tasdiqlangan reprezentativligi, takliflarning amaliyotga tatbiq etilishi, olingan natijalarni vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz tilini podkasting va videokasting metodi asosida o'qitishda matematika fakultetlari talabalarining nutq kompetensiyasini oshirishning nazariy asoslari hamda tamoyillarini umumlashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ingliz tilini o'qitishda matematika fakulteti talabalarining nutq kompetensiyasini oshirish bo'yicha topshiriq va mashqlar tizimini takomillashtirish, O'zbekiston oliy o'quv yurtlari negizida treninglar, maxsus kurslar va master-klasslarni tashkil etish, "Matematika" va "Matematikani o'qitish metodikasi" mutaxassisliklari bo'yicha (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (TDPU), Namangan davlat universiteti (NamDU), Buxoro davlat universiteti (BuxDU)) mutaxassislar tayyorlash hamda darslik va o'quv qo'llanmalar yaratish uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz tilini o'qitishda matematika fakulteti talabalarining og'zaki nutq kompetensiyasini oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan nazariy, uslubiy va amaliy natijalar asosida:

talabalarining kasbiy va ijodiy faolligini oshirish maqsadida "Mathcass" veb-platformasidan foydalanish asosida matematika fakulteti talabalarining ingliz tilini o'qitishda og'zaki nutq (tinglash va gapirish) kompetensiyasini oshirish bo'yicha

shakllantirilgan uslubiy tavsiyalardan Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida 2019-2021-yillarda amalga oshirilgan 1-OT-2019-8-raqamli “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tabiiy (fizika-matematika va biologiya) fanlari uchun yangi avlod elektron o‘quv-metodik qo‘llanmalarni yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” mavzusidagi innovatsion loyihada foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining 2023-yil 5-iyuldagi 01/15-09/147-son ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy-nazariy xulosalar loyiha doirasida yaratilgan yangi avlod elektron o‘quv-metodik qo‘llanmalarining takomillashuviga xizmat qilgan;

matematika fakulteti talabalarining og‘zaki nutqi kompetensiyasini oshirishga qaratilgan podkasting va videokasting usulini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiluvchi autentik matnlar, audio va videomateriallarni tanlashda kontentga yo‘naltirilgan yondashuv mezonlari bo‘yicha taklif va tavsiyalardan Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutida 2016-2017-yillarda amalga oshirilgan “MUZ-2015-0908164325 “Kommunikativ-kumulyativ metod asosida umumta’lim maktabi o‘quvchilariga ingliz tilini samarali o‘qitish texnologiyalari” mavzusidagi yosh olimlar amaliy loyihasida foydalanilgan (Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot institutining 2023 yil 5-iyuldagi 01/15-09/147-son ma’lumotnomasi). Natijada nutq va tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan autentik matnlar, audio va video materiallarni tanlash mezonlari takomillashtirilgan;

ingliz tilini o‘qitishda matematika fakulteti 1-kurs talabalarining ingliz tilidagi nutqiga o‘zbek tilining interferensiyasi natijasida yuzaga keladigan nutqiy xatolarning tasnifi matematikaga oid terminlarning inglizcha-o‘zbekcha mosligi, matematik tushunchalar va geometrik figuralar izohi, shuningdek, talaffuz va tinglab tushinishdagi qiyinchiliklar hisobga olingan holda amalga oshirilgani borasidagi mulohazalardan O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida 2020-2022-yillarda amalga oshirilgan Radiotexnika qo‘shinlari GVM o‘quv-terminologik lug‘atining “Erudit” yopiq fundamental loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining 2023-yil 11-iyuldagi 10/1146-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘quv-terminologik lug‘at mazmun-mundarijasiga ko‘ra boyitilgan;

talabalarining kasbiy va ijodiy faolligini oshirish maqsadida “Mathcass” veb-platformasidan foydalangan holda ingliz tilini o‘qitishda matematika fakulteti talabalarining nutqiy kompetensiyalarini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2022-2023-yillardagi “Millat va ma’naviyat”, “Ta’lim va taraqqiyot”, “Bolalar va biz” teleko‘rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 6-iyuldagi 04-36-1058-son ma’lumotnomasi). Natijada radioeshittirishlar mazmuni matematika fakultetlari talabalarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyani takomillashtirish muammosiga oid yangicha qarashlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish e'lon qilingan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, respublika jurnallarida 5 ta, xorijiy jurnallarda 14 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 155 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, amaliy natijalari va ilmiy yangiligi bayon qilingan, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi ochib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot ishining **“Ingliz tilini o'rganishda talabalarning og'zaki nutqini o'rgatishning nazariy-metodik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi nazariy-umumiy bo'lib, uch paragrafdan iborat. *“Ilmiy-metodik adabiyotlarda talabalar og'zaki nutqini o'rgatish masalalari”* deb nomlangan birinchi paragrafda chet tili og'zaki nutqini o'rgatish muammosiga bag'ishlangan ilmiy ishlar tahlili berilgan. Bugungi kunga qadar didaktikada talabalarning turli kontingentlariga, shu jumladan nolfilologik universitetlar talabalariga og'zaki nutqni o'rgatish bo'yicha ancha katta tajriba to'plagan.

Tadqiqot jarayonida o'rta umumiy ta'lim, o'rta maxsus va oliy maktablar uchun xorijiy tillar bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalarining mutlaq ko'pchiligi tushunchalari nutq faoliyati turlarini o'zaro bog'liq holda o'qitish tamoyiliga asoslanganligi aniqlandi. O'zaro bog'langan ta'lim nutq faoliyati turlarini ketma-ket o'rganish turiga qarama-qarshi bo'lib, unda tinglash uning talaffuzidan oldin, o'qish va yozish esa materialni og'zaki o'rganishdan keyin amalga oshiriladi. Bunday o'qitish «drill and practice» (“mashq va amaliyot”) xulq-atvor modeliga hamda og'zaki nutqning yozma nutqdan ustunligi nuqtayi nazariga rioya qilishga asoslangan tabiiy, to'g'ridan-to'g'ri, audiovizual, audiolingval singari to'g'ridan-to'g'ri metodlar uchundir. Mazkur tadqiqotimizda asosan audiovizual va audiolingval o'qitish usullari vositalaridan foydalanishga (podkastlar va videokastlarga tayangan holda) e'tibor qaratilgan, biroq audiovizual va audiolingval metodlar asosida chet tilini o'rganayotgan o'quvchilarning ona tiliga tayanmaslik amaliyoti saqlanib qolmoqda, biz esa bunday uslubni qabul qilmaymiz. Bunda biz chet tilini o'rgatish ongli bo'lishi kerak degan qat'iy fikrimizdan kelib chiqamiz, ayniqsa matematika fakultetlari talabalariga “Maxsus maqsadlarda ingliz tili” (ESP)ni o'qitish haqida gap ketmoqda. ESPni o'rgatishda o'qituvchi chet tili darslarida shakllangan nutq kompetensiyalari va talabalar ega bo'lgan kasbiy kompetensiyalar o'rtasida doimiy aloqani o'rnatishi kerak, buni esa ona tiliga

tayanmasdan amalga oshirish mumkin emas. Nutq faoliyati turlarini o‘zaro bog‘liq holda o‘rganish tamoyiliga rioya qilgan holda ommaviy axborot vositalarini o‘rganish vositalaridan foydalanish mumkin deb hisoblaymiz.

Og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha ko‘pgina zamonaviy tadqiqotlar o‘rganish mavzusining o‘zini batafsil yoritib berish bilan tavsiflanadi, buning natijasida o‘rganish chet tilida bir butun chet tilining og‘zaki nutqi kompetensiyasi sifatida emas, balki faqat uning ba‘zi jihatlari⁶ sifatida amalga oshiriladi.

Bizning tadqiqotimiz uchun Y.I. Passovning og‘zaki nutqni o‘rgatishda og‘zaki-fikrlash (kognitiv) faoliyat tamoyili katta ahamiyatga ega, uni asoslash kontekstida “materialning nutq (kommunikativ) qiymati” tushunchasi kiritilgan: “Bu haqiqiy aloqaning taxminiy sohalarida ishlatiladigan materialga (ko‘p yoki kamroq darajada) mos keladigan material turi. Ushbu materialning nutq yoki kommunikativ qiymati qanchalik baland bo‘lsa, undan muloqotda foydalanish ehtimoli shunchalik yuqori bo‘ladi. <...> Haqiqatda nutq mavzuli emas, mazmunli; har bir munozara predmeti, go‘yo, nutqning o‘zi evristik bo‘lgani kabi, tabiatan evristik bo‘lgan «tarkib maydoni»ning markazidir»⁷. Shulardan kelib chiqib, biz o‘quv qurollarini tanlashda mazmunga yo‘naltirilgan yondashuvni ishlab chiqishni *ESP* ni o‘qitishda nutqiy materialning qimmatini oshirishning samarali usuli, ya‘ni ma‘lum bir fan sohasiga (bizning holatda – matematikaga) tegishli bo‘lgan autentik matnlar, audio va video materiallardan foydalanish deb hisoblaymiz. Shuningdek, chet tili darslarida o‘quv faoliyatini faollashtirishning muhim omillaridan biri sun‘iy chet tili muhitini yaratishdir⁸. Bundan kelib chiqqan holda, tinglash (audirovaniye) til o‘rganishning deyarli asosiy vositasiga aylanadi, nutq esa ayni vaqtda uning maqsadi hisoblanadi. Ta‘lim sohasini axborotlashtirish jarayoni va turli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini jalb qilish tufayli chet tili va madaniy muhitga taqlid qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaymoqda.

Birinchi bobning **“Og‘zaki nutq kompetensiyasining tavsifi”** deb nomlangan ikkinchi paragrafida og‘zaki nutq kompetensiyasining lingvistik, psixologik va lingvodidaktik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan, audirovaniye, yoki tinglash - bu “tovushli matnni semantik idrok etishga va suhbatdoshlarning kommunikativ o‘zaro ta‘siriga qaratilgan nutq faoliyatining retseptiv turi”⁹. Tinglash qobiliyati “ijtimoiy jihatdan eng katta ahamiyatga ega va shu bilan bir paytda eng qiyin muloqot qobiliyatlaridan biridir. Shu bilan birga, biz YE.V. Rubsova fikriga ham qo‘shilamiz: «Tinglash - bu nafaqat quloq orqali ma‘lumotni idrok etish, balki eshitilgan narsaga javoban ichki nutqni

⁶ Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М, 1991. – С. 49.

⁷ См. об этом: Дмитренко Т.А. Методика преподавания английского языка в вузе. – М., 2009. – С. 68.

⁸ Сегова Т.Д. Обучение слушанию как виду речевой деятельности в 5–6 классах: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Екатеринбург, 2006. – С. 3.

⁹ Рубцова Е.В., Девдариани Н.В. Аудирование как рецептивный вид речевой деятельности // АНИ: педагогика и психология. – Тольятти, 2021. – №1 (34). – С. 214.

shakllantirishdir»¹⁰. Kontakt va distant tinglashni farqlaydilar¹¹. Shu bilan birga, tinglash (audirovaniye)ning distant turi ko‘plab mualliflar tomonidan vizual “tayanchi” yo‘qligi sabab qiyin deb hisoblanadi¹². Biroq, N.D. Galskova tomonidan ko‘rsatilgan qiyinchiliklar ovozli matnни qayta-qayta, takror tinglash sharoitida distant tinglashning afzalligiga aylanadi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan gapirish tuzilmasi uch qismni o‘z ichiga oladi: motivatsion- undovchi, analitik-sintetik va nazorat-ijro etuvchi¹³. Ya’ni, gapirish bir vaqtning o‘zida bir nechta kompetensiyani safarbar qilishni talab qiladi. Tipologik jihatdan, gapirish tashabbuskor, reaktiv va stoxastik bo‘lishi mumkin. O‘z mulohazalarini ifodalash sifatida tashabbuskor gapirish ham dialogik, ham monologik nutq doirasida amalga oshirilishi mumkin. Reaktiv nutq suhbatdoshning so‘zlariga munosabatni o‘z ichiga oladi va faqat dialog (polilog) doirasida amalga oshiriladi. Stoxastik nutq reproduktiv nutqdir, ya’ni tugallangan, tayyor matnни yoddan takrorlash yoki qayta gapirib berish.

Psixologiya nuqtayi nazaridan, tinglash yangi ma’lumot olishning eng muhim usuli, shaxsning madaniy rivojlanishi vositasidir. Tinglovchi oldida turgan maqsadning tabiatiga ko‘ra, tinglash global, batafsil, tanqidiy bo‘lishi mumkin. Ularning farqlari, eng avvalo, idrok etilayotgan nutq mavzusiga e’tiborning chuqurligi darajasi bilan belgilanadi. Nutqning psixologik xususiyati, birinchi navbatda, uning vazifalari bilan belgilanadi. Bularga quyidagilar kiradi: *ta’sir, xabar, ifoda, belgilash*. Nutqning *mazmunlilik, aniqlik, ifodalilik, ta’sirchanlik* kabi xususiyatlari ham muhimdir.

Og‘zaki nutq kompetensiyasini chet tillarini o‘qitish metodikasi nuqtayi nazaridan tavsiflashda o‘quv va kommunikativ tinglashning qarama-qarshiligini hisobga olish kerak: «Agar o‘quv tinglash o‘quv vositasi bo‘lib, til materialini tanishtirish usuli bo‘lib xizmat qilsa, u holda kommunikativ tinglash o‘qitish maqsadi va nutqni bir martalik ijro etilish paytida tinglab tushunish kabi murakkab nutq qobiliyatidir», - deb ta’kidlaydi B.B.Aliyeva¹⁴. Tilni o‘rgatishda bu ikki tur aksariyat xollarda ma’lum bir darsning mavzusi va aniq maqsadlaridan qat’i nazar doimiy ravishda butun ta’lim jarayoniga hamroh bo‘ladi. Og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirish deduksiya orqali amalga oshirilishi mumkin, bu amalda keyingi nutq uchun namuna audiomatndan, shu jumladan podkasting va videokastingdan foydalanishni anglatadi.

Birinchi bobning “Talabalarning og‘zaki nutq kompetensiyasini oshirishda podkasting va videokasting metodining o‘rni” deb nomlangan uchinchi paragrafi

¹⁰ Говорун С.В. Развитие навыков и умений аудирования у студентов-востоковедов, изучающих английский язык: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – Спб., 2015 – С. 14.

¹¹ Гальскова Н.Д. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. Уч. пособие для студ. лингв. ун-тов и фак. ин. яз. высш. пед. учеб. заведений / Гальскова Н.Д., Гез Н.И. –Изд. 6-е, стер. – М.: Академия, 2009. – С. 170.

¹² Бредихина И.А. Методика преподавания иностранных языков: Обучение основным видам речевой деятельности. Уч. пособие. – Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2018. – С. 31–32.

¹³ Алиева Б.Б. Особенности обучения аудированию иностранных студентов-нефилологов // World Science Vol.2. – № 2(42).– С. 39.

¹⁴ Самарская С.В. и др. Применение подкастинга в процессе обучения иностранному языку / Самарская С.В., Кисель И.Ф. // Международный научно-исследовательский журнал. Вып. 7 (109). – Екатеринбург, 2021. –Ч. 4. – С. 101–102.

og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida mediatexnologiyalardan foydalanish jarayonining xususiyatlariga bag‘ishlangan. Multimedia texnologiyalaridan foydalanish o‘qituvchilar faoliyatini shu qadar o‘zgartiradiki, bu chet tili o‘qituvchisining roli va funksiyalarini qisman qayta ko‘rib chiqish zarurligiga olib keladi, shu jumladan tinglashni o‘rgatish jarayonida ham. Shu bilan birga, chet tillarini o‘qitish metodikasida tinglashning o‘zi ko‘pincha chet tilidagi muloqotni o‘rgatish vositasi sifatida qaraladi. ESPni o‘qitish uchun mediatexnologiyalardan foydalanishning mumkin bo‘lgan strategiyalaridan biri bu podkasting va videokasting metodini qo‘llash jarayonidir. S.M. Samarskayaning ta‘rifiga ko‘ra, «podkast» termini *pod* (*Apple iPod* mediapleyeri) va *broadcast* (radioeshittirish, televizion eshittirish) atamalarining birikmasidir. Shunday qilib, podkastlar *iTunes* kabi *podcatcher* dasturidan foydalangan holda Internetga yuklangan raqamli audio va video yozuvlar seriyasidir”¹⁵. Bugungi kunga qadar podkastingni ta‘lim texnologiyasi sifatida nazariy asoslash va amaliy tekshirishga bag‘ishlangan bir qator ishlar mavjud¹⁶.

Podkastning ishchi ta‘rifi sifatida biz quyidagi ta‘rifni qabul qilamiz: «Podkasting(podcast) - bu har qanday shaxs tomonidan yaratilgan va butunjahon tarmoqlarida tinglash yoki ko‘rish uchun mavjud bo‘lgan audio yoki video yozuvdir”¹⁷. «Videokast» termini ko‘p jihatdan podkast tushunchasiga o‘xshaydi. Videokast bu “shaxsiy kompyuter yoki mobil telefon yordamida Internet orqali raqamli formatda tarqatiladigan videofayl ko‘rinishidagi podkasting turidir. Videokast – bu video ketma-ketligiga ega bo‘lgan podkasting, u tinglash vositasi sifatida ham qo‘llanishi mumkin, ammo tasvir ingliz tilidagi nutqni tushunishga yordam beradi”¹⁸. Ushbu ta‘riflarga asoslanib, biz podkasting– bu radio va Internetning afzalliklarini o‘zida mujassam etgan xorijiy tillarni o‘qitishda qo‘llanadigan dolzarb Internet texnologiyasi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Shu tariqa, videokastingni ham chet tillarini o‘rgatishda qo‘llanadigan va televideniye va Internetning afzalliklarini birlashtirgan zamonaviy Internet texnologiyasi sifatida ta‘riflash mumkin. Podkastlar muntazam ravishda qo‘llanishi kerak, chunki ulardan muntazam bo‘lmagan holda foydalanish samarali bo‘lishi mumkin emas. Podkasting metodidan foydalanish bo‘yicha xorijiy tajribaga Pimsler

¹⁵ Герасименко Т.Л. и др. Опыт использования подкастов и видеокастов при интегрированном обучении профессионально ориентированному деловому английскому языку / Герасименко Т.Л., Гулая Т.М. // Открытое образование. – М., 2013. – №1(96). – С.73–76; Ковалёва Т.А. Дидактический потенциал подкастов и методика их использования в дистанционной форме обучения иностранному языку // Иностранные языки в дистанционном обучении: III Международная науч.-практ. конф.; Пермский государственный технический университет. – Пермь: Изд-во Перм. гос. техн. ун-та, 2009. – Т. 2. – С. 48–55; Ashton-Hay S. Here’s a story: using student podcasts to raise awareness of language learning strategies / Ashton-Hay, S., & Brookes, D. // EA Journal. 26(2). – 2011. – P. 15–27. [Electronic resource]. URL: <https://www.academia.edu/3877989/> (accessed: 27.10.2021); Hassan M. M. Podcast applications in language learning: a review of recent studies / Hassan M. M. & Hoon T. B. // English language teaching. 6(2).–2013.–P.128–135. [Electronic resource]. URL: <https://clck.ru/WBdWP> (accessed: 27.10.2022) и др.

¹⁶ Сысоев П.В. Подкасты в обучении иностранному языку//Язык и культура. – Томск, 2014. – №2. – С. 189.

¹⁷ Стройков С.А. и др. Формирование навыков аудирования на уроках иностранного языка в средней школе посредством подкастов и видеокастов / С. А. Стройков, А. А. Мазина, М. Д. Стройкова // Высшее гуманитарное образование XXI века: проблемы и перспективы. – Самара, 2019. – С. 237-243.

¹⁸ Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume with New Descriptors. – Strasbourg: Council of Europe, 2018. URL: <https://rm.coe.int/cefr-companion-volume-with-new-descriptors-2018/1680787989> (дата обращения 01.03.2023 г.).

metodi misol bo‘la oladi. Podkasting va videokastingning texnik xususiyatlarini taqqoslash bizga podkastingning hamda videokastingning didaktik salohiyati bo‘yicha bir qator aniq xulosalar chiqarishga imkon berdi, ya‘ni ularning chet tilini o‘qitishdagi uslubiy vazifalari: Shu bilan birga, podkastlar va videokastlarni taqqoslash jarayonida ularning o‘xshash va farqli tomonlari namoyon bo‘ladi (1-jadval).

1-jadval

Podkasting va videokastingning texnik va didaktik tavsiflari

Texnik va didaktik tavsiflar	Xorijiy tilni o‘qitishda podkastinglarning metodik funksiyalari	Xorijiy tilni o‘qitishda videokastinglarning metodik funksiyalari
Autentiklik	Axborotni asosan bitta kanalli idrok etish, asosan eshitish kanallarini faollashtirish, chunki. podkastinglar audio qator sifatida yaratilgan	Axborotni ko‘p kanalli idrok etish, eshitish va vizual kanallarni faollashtirish, chunki videotasvirlar tovush, foto yoki video tasvirlar, matnli materiallar kombinatsiyasi asosida yaratilgan
Ko‘rgazmalilik turi	Podkasting eshitish ko‘rgazmali vositasidir	Videokast eshitish va ko‘rish/tomosh qilish ko‘rgazmali vositasidir
Imkoniyatlilik darajasi	Podkastinglardan foydalanish imkoniyatlari texnik omillar bilan biroz cheklangan (Internet-trafik tezligi, kompyuter yoki mobil qurilma sifati)	Videokastinglardan foydalanish imkoniyatlari texnik omillar bilan biroz cheklangan (Internet-trafik tezligi, kompyuter yoki mobil qurilma sifati)
Talabalarning sotsiomadaniy va sotsiologik kompetensiyasini shakllantirish qobiliyati	Talabalarning sotsiomadaniy va sotsiologik kompetensiyasini shakllantirishda podkasting imkoniyatlari sezilarli darajada cheklangan.	Talabalarning sotsiomadaniy va sotsiologik kompetensiyasini shakllantirishda videokasting imkoniyatlari nihoyatda kengdir.

Mazkur dissertatsion tadqiqotda podkasting va videokasting usulini amalga oshirish vositasi bo‘lib xizmat qiladigan va og‘zaki nutq malakasini oshirishga qaratilgan autentik matnlar, audio va video materiallarni tanlashda kontentga yo‘naltirilgan yondashuvning quyidagi mezonlarini taklif qilamiz: 1) audiomatnning professional va tematik yo‘nalishi; 2) audiomatnning autentligi mezon; 3) audiomatnning axborotga yo‘naltirilganligi, yangiligi va dolzarbligi mezon; 4) audiomatnlarning janr o‘zgaruvchanligi mezon; 5) Audiomatnlardan foydalanish imkoniyati mavjudligi mezon. 6) mutaxassislikning boshqa fanlar va bilimlarning texnik sohalari bilan o‘zaro aloqadorligi mezon; 7) materialning illyustrativligi mezon. Podkasting va videokasting usulining didaktik materiallarining samaradorlik darajasi ularning ushbu mezonlarga mos kelishiga bevosita bog‘liq.

Ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va eksperimental tadqiqot o‘tkazish jarayonida biz podkastinglar va videokastlar bilan veb-ilovalarni yaratish tajribasini tavsiflovchi ilmiy va ilmiy-uslubiy ishlarni topmadik. Shuningdek, matematika

fakulteti talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini oshirish uchun tanlangan yoki maxsus ishlab chiqilgan podkast tizimlari mavjudligi aniqlanmagan.

“O‘zbekiston Respublikasi matematika fakulteti talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirishning hozirgi holati” deb nomlangan ikkinchi bob uch paragrafdan iborat. Mazkur bobning **“Tadqiq etilayotgan mavzu doirasida o‘quv dasturlar va internet manbalarini tahlil qilish”** deb nomlangan birinchi paragrafida chet tilini bilish darajasini B2 tashkil etuvchi og‘zaki nutqiy kompetensiyalarning tavsifi berilgan. O‘zbekistonda ta’lim tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida oliy ta’lim uchun CEFR¹⁹ chet tili bo‘yicha davlat ta’lim standarti sifatida qo‘llaniladi. Til o‘rganishning yuqori bosqichda tinglashni o‘rganish mazmuniga ma’ruzalar, taqdimotlar, munozaralar, radio va televideniye reportajlari, yangiliklar, byulletenlar, intervyular, hujjatli filmlar va boshqalar, e’lonlar, til sohiblari tomonidan yozib olingan nutqlar (filmlar, ommaviy nutq va boshqalar) ona tilida so‘zlashuvchilar o‘rtasida ijtimoiy mavzular bo‘yicha suhbatlar, tinglash qobiliyatlari va asosiy g‘oyani tushunish, eshitilgan aniq ma’lumotlarni to‘liq tushunish va tushunish qobiliyatini rivojlantirish kiradi. Ta’lim mazmuniga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqadi, B2 darajasi maxsus ma’lumotlarni tinglab tushunish tayyorgarligini o‘z ichiga oladi.

Binobarin, o‘qitishda, bizning holatda, matematik mavzularni o‘qitishda maxsus tanlangan ingliz tilidagi podkast va videokastlardan foydalanish zarurati tug‘iladi. “Matematika – 60540100” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha chet tili o‘quv rejasiga ko‘ra, chet tilini o‘qitishning to‘liq kursi 2 semestrni tashkil etadi. Kurs hajmi 180 soat bo‘lib, shundan 90 soati amaliy mashg‘ulotlar, 90 soati mustaqil ishdur. O‘quv rejasida oltita bo‘limdan iborat bo‘lib, ulardan biri (uchinchisi) mustaqil ta’lim va mustaqil ish shakllari va mazmunini tavsiflaydi. Dastur tomonidan tavsiya etilgan usullar asosan yozma nutqni takomillashtirishga qaratilgan, shuning uchun o‘qitish jarayoniga podkasting va videokastingni kiritish og‘zaki nutq kompetensiyasini oshirish uchun zarurdir.

O‘quv dasturida tavsiya etilgan ingliz tilidagi o‘n sakkizta ta’lim Internet manbalari tahlil qilindi. O‘rganilgan resurslar funktsionalligi va maqsadi bo‘yicha farqlanadi. Tahlil qilinayotgan manbalarning 50% video materiallar, 16,6% matematika bo‘yicha materiallar, 50% ingliz tilini o‘qitishning turli darajalarida tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, faqat 1 ta resursda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlar mavjud. Ta’lim Internet-resurslari yordamida amalga oshiriladigan eng keng tarqalgan metodik usullar bu testlar va o‘yin texnologiyalari. Biz ta’lim Internet texnologiyalari yordamida har qanday o‘qitish usulini amalga oshirish mumkin, deb hisoblaymiz, chunki jamiyat taraqqiyotining ushbu bosqichida ularning rivojlanish darajasi va mavjudligi nihoyatda yuqori bo‘lib, foydalanuvchilarga axborotni yaratish, tizimlashtirish, turkumlashtirish, texnik konsepsiyalash va taqdim etish uchun eng keng vositalarni tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga, biz biron bir metod yoki texnologiyani to‘liq algoritmlash holatlariga duch kelinmadi. Ayni paytda bu muammoning

¹⁹ Постников С.В. Научно-математическая терминология на узбекском языке и деятельность государственных органов власти Узбекистана по ее созданию // Актуальные проблемы гуманитарных и социально-экономических наук. – Вольск, 2014. – Т. 8. – № 1. – С. 67.

yechimi ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni yangi bosqichga olib chiqadi. Shunga ko'ra, biz o'quv Internet-resursni ma'lum bir maqsadli auditoriya (matematika bo'limlari talabalari) ning og'zaki malaka va ko'nikmalarini oshirish uchun aniq, konkret bir metodni (podkasting va videokasting) amalga oshirish sifatida ko'rib chiqamiz.

Ikkinchi bobning **“Talabalarining nutq kompetensiyasini oshirishda OTM o'qituvchilari tajribasini o'rganish va umumlashtirish”** deb nomlangan ikkinchi paragrafi O'zbekiston oliy o'quv yurtlari matematika fakulteti talabalarining chet tili bo'yicha og'zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirishning hozirgi holatini o'rganishga bag'ishlangan. Xususan, TDPU, NamDU va BuxDUning matematika fakultetlarining ingliz tili o'qituvchilari va talabalari o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, o'quv podkastlari va videokastlari bilan ishlash va matematika fakultetlarining ingliz tili talabalarida og'zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirish uchun mo'ljallangan veb-platforni ishlab chiqish zaruriyati to'g'risidagi xulosaga kelindi. Biroq, o'qituvchilarning fikriga ko'ra, undan foydalanish samaradorligiga bir qancha omillar ta'sir qiladi: 1) matematika fakulteti talabalarining og'zaki nutq kompetensiyasini oshirish uchun veb-platfomadan foydalanish uchun podkasting va videokasting metodiga asoslangan maxsus metodologiyani ishlab chiqish kerak; 2) veb-platfoma bilan ishlashni tashkil qilishda joriy o'quv rejasini o'zlashtirish darajasini hisobga olish kerak.

Universitet talabalarining og'zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirish jarayonining hozirgi holatini o'rganish maqsadida o'qituvchilar orasida so'rovnoma o'tkazish bilan bir qatorda TDPU, NamDU, BuxDU talabalarining mustaqil ishlarini tashkil etilishini tahlil qildik. Tahlil natijalariga ko'ra, amaliy mashg'ulotlarda olingan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni qo'llash sifatida ingliz tilidan mustaqil ishlarni tashkil etish zarur, degan xulosaga keldik.

Amaliy mashg'ulotlarning o'quv dasturlari, taqvim va tematik rejalari va uslubiy ishlanmalarini mazmunini o'zgartirish, ya'ni o'rganiladigan matematik atamalar, mavzular va matn materiallarini ko'paytirish zarurligini aniqladik. Bu ma'noda mutaxassislik mavzulari bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish imkoniyatini beruvchi, og'zaki nutq kompetensiyasini oshirish uchun matematik mavzular bo'yicha podkastlar va videokastlardan foydalanishni o'z ichiga olgan maxsus veb-illovani ishlab chiqish samaradorlikni oshirishi mumkin deb hisoblaymiz.

Ikkinchi bobning **“Ingliz va o'zbek tillarining uslubiy maqsadlarda qiyosiy tahlili”** deb nomlangan uchinchi paragrafi ingliz tilini o'qitishda matematika fakultetlari talabalarining nutqiy kompetensiyalarini oshirish nuqtayi nazaridan ingliz va o'zbek tillarini qiyoslashga bag'ishlangan. Bu taqqoslash, asosan, matematik atamalar, ularning tipik birikmalari va ulardan so'z yasovchi hosilalar sohasida ingliz-o'zbek va o'zbek-ingliz muvofiqiligini aniqlash muammosiga taalluqlidir. O'zbek tilida matematikaning terminologik tizimi nisbatan yaqinda paydo bo'lgan bo'lib, hozirgi vaqtda uning faol shakllanishi davom etmoqda va o'zbek tilidagi matematik atama va iboralarning salmoqli qatlamini xalqaro so'zlar tashkil qiladi. Shu bilan birga, o'zbek tilida matematik atamalarning yana ikkita guruhi mavjud bo'lib, ular allaqachon o'zbekcha bo'lib, rus, ingliz va boshqa turkiy

bo‘lmagan tillardagi ekvivalentlari bilan rasmiy belgilari (tovush va imlo) bo‘yicha o‘zaro bog‘liq emas. Bu, birinchidan, o‘zbek tilining ko‘p ma’noli so‘zlari turkumi bo‘lib, ular o‘zlarining leksik-semantik variantlaridan birida matematik atama ma’nosini olgan. (mas.: **hisob** – *calculation*, **harakat** – *operation*). Ikkinchidan, bu matematik atamalar sifatida maxsus yaratilgan so‘zlar va so‘zlarning birikmalari masalan: **o‘nburchak** – decagon; **hosil bo‘lish** – *formation*.

Ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham matematik atamalar xuddi shunday tarzda guruhlashtirilgan. Birinchi guruh – lotin va yunon tillaridan olingan internatsionalizmlar, masalan: ingl. **hypotenuse** (yunoncha. ὑποτείνουσα, «pastdan tepaga tortilgan») – *Hypotenuse is a side of a right triangle that lies against the right angle*. Masalan: o‘zb. **gipotenuza** – *Gipotenuza– to‘g‘ri burchakka qarama-qarshi bo‘lgan to‘g‘ri burchakli uchburchakning tomoni*. Ingliz tilidagi matematik atamalarning ikkinchi guruhi umumiy qo‘llaniladigan ko‘pma’noli so‘zlar bo‘lib, ular o‘zlarining ma’nolaridan birida terminologik ma’noga ega bo‘lganlar, masalan: ingl. **factor** – «ko‘paytiruvchi» ma’nosida («koeffitsiyent», «agent», «boshqaruvchi», «xarakatlantiruvchi kuch» kabi ma’nolar bilan bir qatorda). – *Factor is a number or an expression which another number or expression is multiplied by*. Masalan: o‘zb. **ko‘paytiruvchi**. – *Ko‘paytiruvchi - bu boshqa raqam yoki ifoda ko‘paytiriladigan raqam yoki ifoda*. Va nihoyat, ingliz tilidagi matematik atamalarning uchinchi guruhi ingliz tilidan kelib chiqqan so‘zlar bo‘lib, ular **vertex of parabola** (o‘zb. parabolaning tepasi, **equality with variables** (o‘zb. o‘zgaruvchilar bilan tenglik) kabi iboralarni o‘z ichiga oladi. Ingliz va o‘zbek tillarini taqqoslash matematik terminologiya juda standartlashtirilganligini ko‘rsatadi. Bu, bir tomondan, matematika fakultetlarida dars beradigan ingliz tili o‘qituvchisining vazifasini osonlashtiradi, chunki u nutq ko‘nikmasining transpozitsiyasiga tayanishi mumkin. Boshqa tomondan, bu uning matematik atamalarning ma’nosini aniq tushunishni talab qiladi, garchi buning uchun hozirda mavjud bo‘lgan uslubiy asos aniq yetarli emas. Terminologik tizimlarni solishtirganda, matematik atamalarni toifalarga bo‘lish kerak, ya’ni: 1) matematika bo‘limlarining terminologik nomlari; 2) tegishli matematik tushunchalarning terminologik nomlari; 3) geometrik figuralarning terminologik nomlari (2,3,4-jadvallar).

2-Jadval

Matematika bo‘limlari terminologik nomlarining inglizcha-o‘zbekcha muvofiqliklarini tavsiflash misollari

The name of the section of mathematics in English	Matematika bo‘limining o‘zbek tilidagi nomi
algebra	algebra
Example: <i>Algebra is a branch of Mathematics that studies the operations of sets' elements of arbitrary nature.</i>	Misol: <i>Algebra - matematikaning ixtiyoriy xarakterdagi to‘plam elementlarining amallarini o‘rganadigan bo‘limi.</i>
Typical combinations and derived words: <i>General algebra, higher algebra, elementary algebra, linear algebra, universal algebra.</i>	Tipik birikmalar va hosila so‘zlar: <i>umumiy algebra, oliy algebra, elementar algebra, chiziqli algebra, universal algebra</i>

3-Jadval

Xususiy matematik tushunchalar terminologik nomlarining inglizcha-o'zbekcha mos kelishini tavsiflash misollari

The English name of a real mathematical concept	Haqiqiy matematik tushunchaning o'zbek tilidagi nomi
prime number	tub son
Example: <i>A prime number is a natural number that is greater than one and is only divisible by one and itself.</i>	Misol: <i>Tub son - birdan katta bo'lgan va faqat bittaga va o'ziga bo'linadigan butun son.</i>
Typical combinations and derived words: <i>Large prime numbers, algorithms for obtaining prime numbers, infinity of the set of prime numbers, largest known prime numbers, prime numbers of a special form.</i>	Tipik birikmalar va hosila so'zlar: <i>Katta tub sonlar, tub sonlarni olish algoritmlari, tub sonlar to'plamining cheksizligi, eng katta ma'lum tub sonlar, maxsus shakldagi tub sonlar.</i>

4-Jadval

Geometrik shakllarning terminologik nomlarining inglizcha-o'zbekcha nomlarini tavsiflashga misollari

The name of the geometric figure in English	Geometrik figuraning o'zbek tilidagi nomi
square	kvadrat
Example: <i>Square is a rectangle in which all sides are equal.</i>	Misol: <i>Kvadrat - bu barcha tomonlari teng bo'lgan to'rtburchak.</i>
Typical combinations and derived words: <i>inscribed square, diagonal of square, side of a square</i>	Tipik birikmalar va hosila so'zlar: <i>ichki chizilgan kvadrat, kvadratning diagonal, kvadratning tomoni</i>

Yuqorida aytib o'tilgan matematik atamalarining uch toifasi bilan bir qatorda, boshqa kichikroqlarini ham ajratish mumkin, ularning hajmi kichikroq, ammo shunga qaramay, ESP doirasida matematik terminologiyadan foydalanishning ingliz tilidagi an'analari o'zlashtirish uchun muhimdir. Bunday kategoriyalar sifatida dissertatsiyada matematik amallarning terminologik nomlari va matematik mutanosibliklarning terminologik nomlari ko'rib chiqiladi.

Uchinchi bob "**Matematika fakulteti talabalariga ingliz tilini o'qitishda nutq kompetensiyasini oshirish metodikasi**" deb nomlangan bo'lib, u uch paragrafdan iborat. "*Matematika fakulteti talabalarining ingliz tilini o'qitishda nutq kompetensiyasini oshirish bo'yicha topshiriq va mashqlar tizimi*" deb nomlangan birinchi bandida podkasting va videokasting metodiga asoslangan tavsiya etilgan mashqlar tizimining tavsifi berilgan. O'quv mashg'ulotlarining bajarilishning takrorlanishi, cheklangan miqdordagi amallarning mavjudligi, bajarilishning muntazamligi kabi xususiyatlarini hisobga olgan holda va zamonaviy voqelikdan kelib chiqib, mashqlarni kompyuterda bajarish maqbul va maqsadga muvofiq, degan fikrni aytish mumkin. Matematika fakultetlari talabalarining ingliz tilidagi og'zaki nutq kompetensiyasini podkasting va videokasting usulida takomillashtirish bo'yicha mashqlar tizimini tuzish uchun quyidagi dastlabki shartlarni hisobga olish zarur. O'quv rejasida nutqqa qo'yiladigan talablar oltita leksik-tematik guruhni

(umumiy mavzular, ijtimoiy mavzular, ijtimoiy-madaniy mavzular, ta'limga oid mavzular, Internet va axborot texnologiyalari bilan bog'liq mavzular, mutaxassislik bo'yicha mavzular) ko'rsatilgan va amaliy mashg'ulotlarga 90 soat ajratilgan, shunda biz har bir leksik-tematik guruhga o'rtacha 15-16 soat vaqt ajratilgan deb hisoblaymiz. Shunday qilib, biz ishlab chiqayotgan mashqlar tizimi mutaxassislik bo'yicha mavzularni qamrab olishi kerak, uning hajmi 20 soat bo'lishi kerak. Mashqlar tizimi bitta videokast bilan ishlash uchun 2 akademik soat ajratilishini nazarda tutadi. Mashqlar tizimida qo'llaniladigan videokastlar ikki bo'limga bo'lingan: 5 tasi mashhur matematiklarning tarjimayi holiga, qolgan 5 tasi esa qiziqarli matematik fakt va hodisalarga bag'ishlangan.

Ingliz tilini o'qitishda video va audiomateriallardan foydalanish bo'yicha mavjud tajribani hisobga olgan holda, podkasting va videokasting usuliga asoslangan mashqlar tizimini ishlab chiqishda biz quyidagi qoidalardan kelib chiqdik: 1) tizim yaxshi tuzilmalashtirilgan bo'lishi kerak; 2) Videokastlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun videokast mazmuni bilan ko'proq ishlash kerak; 3) mashqlar tuzishda o'quvchining aqliy faoliyatini oldindan prognozlash lozim; 4) matn va video har doim ham bir-biri bilan mukammal va tabiiy tarzda birlashmasligini hisobga olish kerak; 5) Internetdagi videomateriallarning eng katta ma'lumotlar bazasi YouTube xizmati bo'lib, undan videokastlarni qabul qilish va talabalarining o'z audio va videomateriallarini joylashtirish uchun foydalanish mumkin; 6) og'zaki nutq malakasini oshirish uchun motivatsiyani yaratish kerak, chunki bu matematika fakultetlari talabalarining keyingi kasbiy faoliyati uchun muhimdir.

Podkastlar va videokastlar bilan mustaqil ishlash mashqlari tizimining tuzilmasi uch bosqichdan iborat: demonstratsiyadan oldingi, demonstratsion va demonstratsiyadan keyingi. Mashqlar tizimimizdagi har bir videokast (podkast) uchun 14 ta mashq tuzish zarur va yetarli: 4 ta demonstratsiyadan oldingi, 5 ta demonstratsion va 5 ta demonstratsiyadan keyingi mashqlar. Bu mashqlarni professor L.T. Ahmedova foydalanish uchun tavsiya etgan topshiriq va mashqlar asosida tuzamiz. Demonstratsiyadan oldingi bosqichda biz leksik-grammatik, xususan, leksik mashqlardan foydalanamiz. Shuningdek, demonstratsiyadan oldingi mashqlar Prelistening activities mashg'ulotlar, ya'ni daftarda yozma bajariladigan va Prespeaking activities, ya'ni og'zaki bajariladigan mashqlarga bo'linadi:

1) pre-listening: videokast (podkast) nomi asosida matematik atamalar klasterini tuzish; videokast mavzusi bo'yicha tayanch lug'atni tuzish; 2) pre-speaking: matematik atamalarga ta'riflar tanlash; videokast (podkast) nomini sharhlash. Demonstratsion bosqichda biz tayyorlangan nutqni shakllantirish uchun mashqlardan foydalanamiz. Matn mazmunini o'zlashtirish mashqlari: 1) while-listening: "Hikoyalar xaritasi" va "Birga o'rganamiz" metodi bo'yicha videokast (podkast) mazmuni bo'yicha bog'langan va izchil matnni tuzish; 2) while-speaking: videokast (podkast) parchalari mazmunini "Jimjimali arra" metodi yordamida qayta aytib berish; videokast (podkast) matnini tahlil qilish mashqlari: 1) while-listening: videokast (podkast)da matematikadan foydalanishning sabablarini topish (Find the reasons why the videocast (podcast) uses mathematics); videokast (podkast) qahramonlarini tashvishga soladigan muammolarni topish (Find problems that

concern the heroes of the videocast (podcast)); 2) while-speaking: “Joyini egalla” usuli yordamida videokast (podkast) tahlili. Demonstratsiyadan keyingi bosqich talabalar tomonidan uy vazifasi shaklida amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda talaba kompyuterda tinglashni yaxshilash uchun avtomatik tekshiruvlar bilan mashqlarni individual ravishda bajaradi (post-listening). Demonstratsiyadan keyingi bosqichda nutqni yaxshilash uchun biz tayyorlanmagan nutqni shakllantirishda mashqdan foydalanishni taklif qilamiz (post-speaking). Bu yerda talabaga qo‘shimcha manbalardan foydalangan holda bitta individual topshiriqni bajarish taklif qilinadi - o‘zining videokastini - taqdimotini yaratish.

Uchinchi **bobning “Eksperimental tadqiqotlarni tashkil etish va o‘tkazish”** deb nomlangan ikkinchi paragrafi tadqiqot mavzusi bo‘yicha eksperimental ishlarning maqsadi, shartlari va natijalarini tavsiflashga bag‘ishlangan. O‘quv eksperimenti uch bosqichda o‘tkazildi: tayyorgarlik, tashkiliy va yakuniy. Tayyorgarlik bosqichidagi ishlar natijasida: nazariy tadqiqotni amalga oshirish, mashqlar tizimini ishlab chiqish, matematika fakulteti talabalari uchun podkast va videokasting usulidan foydalangan holda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun veb-platforma yaratish. Shuningdek, tayyorgarlik bosqichida TDPU, NamDU, BuxDU matematika fakultetlari talabalari o‘rtasida tajriba va nazorat guruhlarini tuzilib, o‘quv eksperimentini o‘tkazish muddatlari (2021-2022 o‘quv yili), og‘zaki so‘rovnoma o‘tkazilib natijalar olindi, matematika fakulteti birinchi kurs talabalarining ingliz tilidagi og‘zaki nutq kompetensiyasini baholash mezonlari ishlab chiqildi.

Tayyorgarlik bosqichida og‘zaki nutq kompetensiyasini oshirish jarayonidan talabalarining qoniqish darajasini aniqlash uchun biz matematika fakultetining birinchi kurs talabalari o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazdik. So‘rovnomada 6 ta akademik guruh - yuqorida sanab o‘tilgan uchta universitetning birinchi kurslaridan ikkitasi, jami 831 kishi ishtirok etdi. Olingan ma’lumotlarga asoslanib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. OTMLardagi ingliz tili darslarida audio fayllardan ko‘ra videofayllardan ko‘proq foydalaniladi. Ovozli yozuvlar o‘quv qo‘llanmalari sifatida kamroq mashhur bo‘lib bormoqda, lekin ba’zi hollarda ularni o‘rnini videofayllar bosa olmaydi. Respondentlarning katta qismi o‘rganish uchun ingliz tilidagi audio va video fayllarga ega internet resurslaridan mustaqil foydalanmaydi. Olingan ma’lumotlardan og‘zaki nutq malakasini oshirishga qaratilgan jarayonda o‘qituvchilar matn mazmunini o‘zlashtirish va qayta gapirib berishga qaratilgan mashqlardan ko‘proq foydalanishlari ko‘rinib turibdi. Shuningdek, ko‘pchilik podkastlar va videokastlar haqida tasavvurga ega ekanligi, biroq hech kim podkastlarni eshitmagani yoki ingliz tilidagi matematik mavzulardagi videokastlarni tomosha qilmagani aniqlandi.

Yuqorida sanab o‘tilgan OTMLarning ingliz tili o‘qituvchilari tomonidan olib borilgan baholash uchun biz CEFRning listening va speaking testiga o‘xshash og‘zaki so‘rovnoma uchun kartalar tayyorladik. Baholash jarayonida talabalar matnni tingladilar, savollarga javob berdilar va kartochnalarda ko‘rsatilgan fikrlar bo‘yicha monolog va dialog tuzdilar. Listening va Speaking bo‘yicha natijalar oldingi boblarda keltirilgan quyidagi mezonlar bo‘yicha baholandi: Range (so‘z boyligi diapazoni), Accuracy (aniqlik), Fluency (ravnlik, tezlik), Interaction (o‘zaro ta’sir), Coherence (muvofiqlik, izchillik). Har bir mezonga 1 ball beriladi.

O'quv eksperimenti bosqichida biz podkasting va videokasting metodidan foydalangan holda ishlab chiqqan mashqlar tizimi asosida eksperimental guruhlar uchun ingliz tilidan amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi talabalarni Mathcasts veb-ilovasi bilan tanishtiradi, veb-ilova usullaridan foydalangan holda amaliy mashg'ulotlar o'tkazadi, talabalar demonstratsiyadan oldingi va demonstratsion mashqlarni bajaradilar. Demonstratsiyadan keyingi bosqichda talaba har bir darsdan keyin uy vazifasi shaklida mashqlarni bajaradi. Demonstratsiyadan keyingi bosqichda talabalar avtomatik nazoratli avtomatlashtirilgan topshiriqlarni bajaradilar va har bir mavzu bo'yicha yakuniy ish bo'lgan va talaba YouTube videoxostingiga yuklaydigan videokast shaklida qo'shimcha manbalarni jalb qilgan holda individual topshiriqni bajaradilar va ilovamizga havolani yuklaydilar. Videokast sifatida bajariladigan bu vazifani veb-ilovaning barcha foydalanuvchilari ko'rishlari mumkin. Nazorat guruhlari uchun ingliz tilidan amaliy mashg'ulotlar an'anaviy usul bo'yicha o'tkazildi. Eksperimental tadqiqotning yakuniy bosqichida o'quv eksperimentining sifat va miqdoriy xarakteristikalari tahlil qilindi.

Aniqlovchi va yakuniy nazoratlarning miqdoriy xarakteristikalari quyidagi jadvallarda keltirilgan (5, 6-jadval)

5-Jadval

Matematika fakultetlari talabalarining og'zaki nutq kompetensiyasi darajasini aniqlash natijalari


OTM	Respondentlar soni	Range (leksika diapazoni)	Accuracy (aniqlik)	Fluency (tezlik)	Interaction (o'zaroxarakat)	Coherence bog'liqlik)	Ballar yigindisi	Maks. ball	Reyting
TGPU	198	95,04	120,78	148,5	146,52	142,56	653,4	990	66%
NamGU	224	105,28	138,88	125,44	163,52	125,44	658,56	1120	59%
BuxGU	188	77,08	146,64	122,2	109,04	116,56	571,52	940	61%
Jami	610	277,4	406,3	396,14	419,08	384,56	1883,48	3050	61,8%

6-Jadval

Matematika fakultetlari talabalarini o'rtasida og'zaki nutq malakasi darajasi bo'yicha yakuniy natijalar

OTM	Gruppa	Respondentlar soni	Range (leksika diapazoni)	Accuracy (aniqlik)	Fluency (tezlik)	Interaction (o'zaroxarakat)	Coherence (bohliqlik)	Ballar yig'indisi	Maks. ball	Reyting
TGPU	H	99	64,35	69,3	79,2	77,22	67,32	357,39	495	72,2%
	Э	99	88,11	74,25	85,14	86,13	81,18	414,81	495	83,8%
NamGU	H	112	72,8	70,56	78,4	88,48	76,16	386,4	560	69,0%
	Э	112	95,2	88,48	92,96	91,84	90,72	459,2	560	82,0%
BuxGU	H	94	64,86	70,5	73,32	65,8	65,8	340,28	470	72,4%
	Э	94	81,78	79,9	83,66	79,9	78,02	403,26	470	85,8%
Jami	H	305	202,01	210,36	230,92	231,5	209,28	1084,07	1525	71,1%
	Э	305	265,09	242,63	261,76	257,87	249,92	1277,27	1525	83,8%

Eksperimental va nazorat guruhlari reytinglarini, shuningdek, aniqlash bo‘limini taqqoslab, biz o‘quv eksperimenti natijalarini aks ettiruvchi quyidagi diagrammaga ega bo‘lamiz (1-rasm):



1-rasm. Eksperimental tadqiqot natijalarining diagrammasi

Ushbu diagrammadan, eksperimental guruhlarida podkasting va videokasting usuli asosida ishlab chiqilgan metodikadan foydalangan holda o‘qitish natijalari an’anaviy usullar yordamida o‘tkazilgan nazorat guruhlaridagi mashg‘ulotlar natijalaridan 12,7 foizga yuqoriligi ko‘rinib turibdi. O‘z navbatida, bu bizning metodikamizni qo‘llash samaradorligidan dalolat beradi.

Olingan natijalarning ishonchligini tasdiqlash uchun biz t-Student mezonidan foydalanamiz. Barcha kerakli tavsiflovchi statistik ma‘lumotlar 7-jadvalda keltirilgan.

7-jadval

Eksperimental va nazorat guruhlari bo‘yicha statistika

Guruh	Kichik guruhlar soni	O‘rta ball	O‘rtacha o‘zgarish
	n	\bar{X}	Sd
Eksperimental guruhlar	3	322,25	40,1
Nazorat guruhlari	3	275,0875	33,1875

Bunda Student t-mezonini quyidagi formulani qo‘llab hisoblasa bo‘ladi:

$$t = \frac{\bar{X}_3 - \bar{X}_k}{\sqrt{\frac{Sd_3^2}{n_3} + \frac{Sd_k^2}{n_k}}} = \frac{322,25 - 275,0875}{\sqrt{\frac{33,1875^2}{3} + \frac{40,1^2}{3}}} \approx 1,8121.$$

Statistikada xato xulosaning kritik ehtimoli $p=0,05$ deb qabul qilinadi. Agar bizning hisob-kitoblarimizda olingan ehtimollik ushbu qiymatdan kam bo'lsa, biz nol gipotezani rad etishga haqlimiz. t-Student mezonining olingan qiymatining ehtimolligi $p=0,002715$. Ushbu ko'rsatkich ehtimollik kritik ehtimoldan kamroq, bu esa dissertatsiya muallifining matematika fakultetlari talabalarida ingliz tili og'zaki nutq kompetensiyasini oshirish nuqtayi nazaridan ushbu tadqiqotning samaradorligi haqidagi gipotezasi to'g'ri degan xulosaga kelish imkonini beradi.

Uchinchi bobning *“Ingliz tilini o'qitishda matematika fakultetlari talabalarining nutq kompetensiyasini takomillashtirish bo'yicha metodik tavsiyalar”* deb nomlangan uchinchi bandida biz tomonimizdan ishlab chiqilgan Mathcasts ilovasidan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar keltirilgan bo'lib, bu ko'rsatmalarda o'quv dasturiy ta'minotini ishlab chiqishning asosiy metodik tamoyillarini amalga oshiradi, ular qatoriga quyidagilar kiradi: o'quv jarayoning bosqichliligi, o'quv materiallari bo'yicha navigatsiya (menyu yordamida), o'quv materialini kichik bo'limlarga bo'lish, bajarilgan vazifalarni tekshirishni avtomatlashtirish. Podkasting va videokasting metodidan foydalangan holda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan mashqlar tizimi bo'yicha talabani o'quv faoliyati natijalari Internetda ochiq bo'lib, bu ularni baholashning obyektivligi va ko'rgazmaliligini ta'minlaydi va talabalarni samarali o'quv faoliyatiga undaydi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida:

1. Ingliz tilini o'qitishda matematika fakultetlari talabalarining og'zaki nutq kompetensiyasini oshirish jarayonida podkasting va videokastingni amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiluvchi hamda og'zaki nutq malakasini oshirishga qaratilgan autentik matnlar, audio va videomateriallarni tanlashda mazmunga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiqligi aniqlangan. Quyidagilar: 1) audiomatnning kasbiy va mavzuga yo'naltirilganligi mezoni; 2) audiomatnning autentik mezoni; 3) audiomatnning axboriy yo'naltirilganligi, yangiligi va dolzarbligi mezoni; 4) audiomatnlarning janr o'zgaruvchanligi mezoni; 5) audio matnlardan foydalanishning keng imkoniyatlari mezoni; 6) mutaxassislikning bilimning boshqa fanlari va texnik sohalari bilan o'zaro aloqadorligi mezoni; 7) materialning ko'rgazmaliligi (illyustrativligi) mezoni uning mezonlari ekanligi ko'rsatilgan.

2. Matematika fakulteti talabalarining og'zaki nutq kompetensiyasini takomillashtirish jarayonida, bu darajadagi og'zaki nutq tranzaksiyaviy va shaxslararo, interfaol va interfaol bo'lmagan, tayyorlangan va tayyorlanmagan nutq turlarining birikmasi ekanligini hisobga olish kerakligi asoslangan.

3. Ingliz tilini bilishning bir qancha standartlari, shu jumladan, CEFR ham qiyoslangan. Ushbu meyoriy hujjatlarni tahlil qilish natijalariga ko'ra, chet tilini B2 darajasida o'qitishda tinglab tushunishga va maxsus axborotni qayta yaratishga tayyorgarlik ko'rish kerak degan xulosa shakllantirilgan. Bu matematika fakultetlari talabalariga dars berish jarayonida ingliz tilidagi resurslardan maxsus tanlangan podkastlar va videokastlardan foydalanish zarurligi qayd qilingan.

4. “Matematika – 60540100” yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv dasturida talabalar tomonidan loyiha ishini tayyorlashga ijodiy yondashish va nutq faoliyatining barcha to‘rt turi, jumladan, og‘zaki nutqiy kompetensiya ko‘nikmalarini oshirish uchun sharoit yaratish nazarda tutilgan. Dasturlarda tinglash va gapirish ko‘nikmalarini yaxshilash uchun talabalarga o‘zlari ko‘rgan video yoki audio haqida o‘z fikrlarini bildirishga o‘rgatish tavsiya etilgan.

5. Podkasting va videokasting metodi qo‘llash bo‘yicha; matematik mavzular bo‘yicha; B2 darajasida tinglashni yaxshilash bo‘yicha; B2 darajasida gapirishni yaxshilash bo‘yicha metodik ishlanmalar mavjudligi nuqtayi nazaridan ingliz tilini o‘rganish uchun o‘quv resurslarini o‘z ichiga olgan 18 ta sayt tahlili amalga oshirilgan.

6. Tahlil qilingan ta’lim Internet manbalari (ingliz tilidagi ta’lim resurslarini o‘z ichiga olgan 18 ta sayt) funkcionalligi va maqsadi bo‘yicha farqlanadi. Tahlil qilinayotgan manbalarning 50% video materiallar, 16,6% matematika bo‘yicha materiallar, 50% ingliz tilini o‘qitishning turli darajalarida tinglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi va faqat 1 ta resursda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlar mavjud. Bugungi kunda podkasting va videokasting metodidan faol foydalanadigan hamda matematika fakultetlari talabalarining og‘zaki nutq kompetensiyasini oshirish uchun maxsus mo‘ljallangan internet resurslari hozircha mavjud emasligi aniqlangan.

7. O‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalariga ko‘ra, o‘quv dasturlari, taqvimiy-mavzuli rejalar va mashqlarning uslubiy ishlanmalari mazmunini o‘rganiladigan matematik terminlar, mavzular va matnlar sonini ko‘paytirish maqsadida tuzatish zarurligi aniqlangan.

8. Matematik terminlar sohasida inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha muvofiqliklarni, ularning tipik birikmalari va ulardan so‘z yasovchi hosilalarni aniqlash natijalari bo‘yicha asosiy xulosa shakllantirilgan: matematik terminlar ingliz va o‘zbek (shuningdek rus) tillarida to‘liq semantik o‘xshashlikni saqlaydi. Formal jihatdan ular yaqin bo‘lishi (xalqaro, internatsional terminlarda) yoki strukturasi bo‘yicha qiyoslanishi mumkin (dastlabki kelib chiqishga ega bo‘lgan so‘zlarda hosilaviy terminologik ma’nolar rivojlanganda va mahsuldor so‘z yasaliş modellariga ko‘ra terminlar maxsus yaratilganida).

9. Podkasting va videokasting metodi asosida matematika fakultetlari talabalarida ingliz tili bo‘yicha og‘zaki nutq kompetensiyasini oshirish uchun mashqlar tizimi ishlab chiqildi, amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish uchun kompyuter o‘quv dasturi bo‘lgan «Mathcasts» veb-illovasi ishlab chiqildi va joriy qilindi, shuningdek, mashqlar tizimini qo‘llash samaradorligini isbotlash uchun o‘quv eksperimenti o‘tkazildi. Mashqlar tizimida amaliy mashg‘ulotlar uchun 10 ta mavzu, 10 ta videokast va har bir mavzu bo‘yicha 14 ta mashq mavjud. Ulardan 4 tasi demonstratsiyadan oldingi bosqich mashqlari, 5 tasi demonstratsion bosqichga doir va 5 tasi demonstratsiyadan keyingi bosqich mashqlari (oxirgi mashq portfolio yaratish bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ichiga qamrab olgan). Shunday qilib, jami 140 ta mashq tuzildi.

10. Eksperimental guruhdagi mashg‘ulot natijalari nazorat guruhidagi mashg‘ulotlar natijalaridan 12,7% ga yuqoriroq ekanligi aniqlandi, bu biz tomonidan

ishlab chiqilgan mashqlar tizimining samaradorligini isbotlaydi. Shuningdek, matematika fakultetlari talabalarining ingliz tilida og‘zaki nutq kompetensiyasini oshirish maqsadida podkasting va videokasting metodi, «Mathcasts» veb-ilovasi asosidagi mashqlar tizimidan foydalanish hamda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish bo‘yicha umumiy va maxsus uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot istiqbollari biz tomonimizdan ishlab chiqilgan «Mathcasts» veb-saytida taqdim etilgan didaktik materiallar korpusini yanada kengaytirish zaruratida, shuningdek boshqa nofilologik yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalarga ingliz tilini o‘qitishda nutq kompetensiyasi, og‘zaki nutqni yaxshilash uchun podkasting va videokasting metodiga asoslangan mashqlar tizimini ishlab chiqish imkoniyatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Matematika fakultetlari talabalarining ingliz tilidagi nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda ingliz tili muhiti yo‘qligini talabalarning Internet tarmog‘ida matematik mavzularga oid bepul podkast va videokastlarni muntazam tinglashi orqali qoplash tavsiya etiladi.

2. O‘zbekistondagi oliy o‘quv yurtlarining matematika fakultetlarida fan bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar olib borayotgan ingliz tili o‘qituvchilariga biz tomonimizdan tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan “Mathcasts” veb-ilovasidan nafaqat tayyor didaktik material sifatida foydalanish, balki o‘zlarining shunga o‘xshash ishlanmalarini yaratish uchun asos sifatida qo‘llash tavsiya etiladi.

3. Matematik termin va ifodalarning inglizcha-o‘zbekcha va o‘zbekcha-inglizcha elektron lug‘atini ishlab chiqish zarurati mavjud.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ
ЯЗЫКОВ**

КАРИМОВА ЗУЛЬФИЗАР РУСТАМОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕЧЕВОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У
СТУДЕНТОВ МАТЕМАТИЧЕСКИХ ФАКУЛЬТЕТОВ ПРИ
ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания
(английский язык)**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2020.2.PhD/Ped1650.

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.uzswlu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Ахмедова Лайлохон Толибжоновна
доктор педагогических наук, профессор

Официальные оппоненты: Жуманазаров Умид Умирзокович
доктор педагогических наук (DSc), доцент
Уразбаев Хикматулло Исматуллаевич
доктор философии по педагогическим наукам

Ведущая организация: Гулистанский государственный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 года в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, ул. Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92; e-mail: uzswlu_info@mail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за № ___). (Адрес: 100138, г. Ташкент, Учтепинский район, ул. Кичик халка йули, дом 21А. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 года.

(реестр Протокола рассылки №___ от «___» _____ 2024 года).

И.М.Тухтасинов

Вр.и.о. Председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор пед. наук (DSc), профессор

А.Б. Рахмонов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор пед. наук (DSc), доцент

К.Ш. Мурадқасимова

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор пед. наук (DSc), доцент

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В современном мире неуклонно возрастает интерес к разработке технологий, методов и приемов совершенствования речевых компетенций по английскому языку, с учетом необходимости формирования профессиональных компетенций будущих специалистов. Одним из наиболее перспективных направлений развития методики обучения английскому языку признается разработка мультимедийных дидактических средств, способных активизировать учебное взаимодействие преподавателя со студентами и расширить возможности для самообразования студентов по иностранному языку. В свете этого возрастает потребность в совершенствовании медийной и информационной грамотности обучаемых континентов, на что, в частности, направлены международная программа Digital Competence Framework for Educators (DigCompEdu), а также деятельность Отдела цифровой педагогики и учебных материалов ИИТО ЮНЕСКО. В результате роста медийной и информационной грамотности учащейся молодежи, а также информатизации всех сфер жизни общества открываются широчайшие перспективы для использования в обучении иностранным языкам метода подкастинга и видеокастинга.

За рубежом исследования проблем совершенствования устной речевой компетенции у студентов математических факультетов при обучении английскому языку проводятся в Казанском федеральном университете (Российская Федерация, Казань), Пятигорском государственном лингвистическом университете (Российская Федерация, Пятигорск), языковом центре IEP (Intensive English Programme) при Национальном университете Калифорнии в Риверсайде (США), Университете Виннипега (Канада). Метод подкастинга и видеокастинга активно используется при обучении иностранным языкам в таких зарубежных вузах, как Университет Восточного Лондона (University of East London), Университет Южного Креста в Австралии (Southern Cross University), Университет Путра в Малайзии (Putra University), Тамбовский государственный университет им. Г.Р. Державина, Ростовский Государственный Экономический Университет (Российская Федерация) и др.

В Республике Узбекистан интенсивно претворяются в жизнь масштабные реформы образования. Особое значение при этом придается теории и практике преподавания иностранных языков на разных ступенях образования, и следующее требование поставлено главой государства как актуальная задача: «Настало время создать в нашей стране новую систему обучения иностранным языкам, которая станет прочным фундаментом на будущее. Раз мы ставим перед собой цель построения конкурентоспособного государства, то отныне выпускники школ, лицеев, колледжей и вузов должны свободно владеть как минимум двумя иностранными языками. Это строгое требование должно стать главным критерием работы руководителя каждого учебного заведения»¹. В

¹ Мирзиёев Ш.М. Настало время создать новую систему обучения иностранным языкам, которая станет прочным фундаментом будущего // Официальный веб-сайт Президента Республики Узбекистан (Электронный ресурс). URL: <https://president.uz/ru/lists/view/4327> (Дата обращения: 08.09.2024 г.).

связи с этим в сфере преподавание английского языка в вузах Узбекистана происходят существенные сдвиги, связанные с интенсивным внедрением коммуникативного и социокультурного подходов. Во многих нефилологических вузах Узбекистана большое значение придается развитию системного обучения английскому языку для специальных целей (ESP). Тот факт, что исследуемая в диссертации проблема совершенствования устной речевой компетенции по английскому языку у студентов математических факультетов находится в русле этой общей тенденции, обеспечивает актуальность и необходимость темы.

Данное диссертационное исследование служит решению задач по повышению результативности образования, определенных в Законе Республики Узбекистан №637 от 23 сентября 2020 г. «Об образовании», Указах Президента Республики Узбекистан №УП-5847 от 8 октября 2019 г. «Об утверждении “Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года”», №УП-60 от 28 января 2022 г. «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановлениях Президента Республики Узбекистан №ПП-1875 от 10 декабря 2012 г. «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков», № ПП-5117 от 19 мая 2021 г. «О мерах по поднятию на качественно новый уровень популяризации изучения иностранных языков в Узбекистане», №ПП-4708 от 7 мая 2020 года «О мерах по повышению качества образования и развитию научных исследований в области математики», Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № ПКМ-312 от 19 мая 2021 г. «О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков», а также в ряде иных нормативно-правовых документов, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В нашей стране изучению вопросов методики обучения иностранным языкам посвящены труды Л.Т. Ахмедовой, Ж.Ж. Жалолова, Г.Х. Бакиевой, М.Т. Ирискулова, И.М. Тухтасинова, Г.Т. Махкамовой, Т.К. Сатторова, Ф.М. Рашидовой и др.²

² Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов: Автореф. дис. ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2012. – 48 с.; Jalolov J.J., Makhlamova G.T., Sh.S.Ashurov. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Бакиева Г.Х. Ирискулов М.Т., Рашидова Ф.М. English B1. Student’s book. For the 1st year students of Academic Lyceums and Vocational Colleges. – Тошкент: Узбекистон, 2014. – 176 с.; Ирискулов М.Т. Чет тилларни ўқитишда CEFR ўрни // Узлуксиз таълим журнали. – Тошкент, 2016. – №1. –Б.77–83; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности // Бўлажак чет тил ўқитувчисини йўналтириш технологияси: илмий-амал. конф. материал. – Тошкент, 2009. – Б. 45–150; Сатторов Т.Қ. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Тошкент: ТДЮИ, 2003. – 192 б.; Рашидова Ф.М. CEFR асосида чет тилларни

Вопросами применения педагогических и информационных технологий на занятиях по иностранным языкам в Узбекистане занимались такие ученые, как Ф.Р. Юзликаев, У.Ш. Бегимкулов, Г.Н. Ирмухамедова, Ф.Ш. Алимов, Б.Г. Кулматов, К.Ш. Мурадқасимова, А.Б. Раҳмонов, М.А. Мамедова, Г.С. Сабирова, Л.Ш. Шосаидова и др.³

Способы совершенствования речевой компетенции при обучении иностранному языку служили объектами исследования таких ученых, как М.Ш. Рузметова, У.К. Насирова, Н.В. Обухова, Р.Ф. Габдулхакова и др.⁴

Проблемам применения подкастов и видеокстов в процессе обучения иностранному языку посвящены работы Е.Ю. Малушко, С.В. Самарской, А.Г. Соломатиной, П.В. Сысоевой, Т.Л. Герасименко, Т.В. Колесовой и др.⁵, а также труды зарубежных исследователей: Сэлли Эштон-Хэй, Масудул Хассан, Р. Чакраоди, Джереми Хармер, Р. Робертс и др.

ўрганиш, ўқитиш ва баҳолашда касб маҳорати // Узлуксиз таълим журнали. – Тошкент, 2016. – № 6. –Б. 70–71.

